



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University

Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

20muzaffar@mail.ru

Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)

yo'nalishi I - bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Dastlabki islohotlar davri, o'tish iqtisodiyoti bosqichi, barqaror o'sish davri va hozirgi zamonaviy bosqichlardagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar, sanoat diversifikatsiyasi, eksport salohiyatining oshishi va xorijiy investitsiyalar oqimi kabi zamonaviy tendensiyalar ham tahlil etilgan. Maqolada statistik ma'lumotlar va amaliy misollar asosida iqtisodiy rivojlanishning hozirgi holati va istiqbollari haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston iqtisodiyoti, rivojlanish bosqichlari, islohotlar, zamonaviy tendensiyalar, raqamli iqtisodiyot, investitsiyalar, sanoat, eksport, iqtisodiy o'sish.

Аннотация: В статье анализируются этапы развития экономики Узбекистана после обретения независимости. Освещены важные социально-экономические изменения в период начальных реформ, на этапе переходной экономики, в период устойчивого роста и на современных этапах. Также были проанализированы современные тенденции в экономике, такие как цифровые технологии, диверсификация промышленности, рост экспортного потенциала и приток иностранных инвестиций. В статье на основе статистических данных и практических примеров сделаны выводы о современном состоянии и перспективах развития экономики.

Ключевые слова: Экономика Узбекистана, этапы развития, реформы, современные тенденции, цифровая экономика, инвестиции, промышленность, экспорт, экономический рост.

Abstract: This article analyzes the stages of development of the economy of Uzbekistan after independence. The period of initial reforms, the stage of the transition economy, the period of stable growth and the current modern stages are highlighted. Modern trends in the economy, such as digital technologies, industrial diversification, increased export potential and foreign investment inflows, are also analyzed. The article draws conclusions.



about the current state and prospects of economic development based on statistical data and practical examples.

Keywords: *Economy of Uzbekistan, stages of development, reforms, modern trends, digital economy, investments, industry, export, economic growth.*

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng yangi iqtisodiy tizimga – bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi. Bu yo'l, tabiiyki, murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, uzoq muddatli strategik islohotlarni talab etdi. Ilk yillarda og'ir iqtisodiy inqirozlar, inflyatsiya, sanoatning pasayishi kabi holatlar kuzatilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan iqtisodiy siyosatda aniqlik va mustahkamlik shakllana boshladi. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, asosiy tarmoqlardagi o'zgarishlar, zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar va istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston 1991-yil O'rta Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib mustaqil davlat bo'lib shakllandi. Mustaqillikdan keyingi iqtisodiy islohotlar tez sur'atlarda o'z samarasini ko'rsatmagan bo'lsa ham, mamlakatning iqtisodiy ko'rsatgichlari davomli va barqaror holatda edi. Nega bunday bo'ldi? degan jumboqli savol paydo bo'lishi mumkin, chunki O'zbekiston iqtisodiyotni davlatning asosi deb tushindi va bunda ehtiyotkorlik chora-tadbirlarini ko'rishni afzal bildi. 1991-yildan boshlab O'zbekiston o'z iqtisodiy modelini shakllantirishga kirishdi. "O'zbek modeli" deb nom olgan bu yondashuv besh asosiy tamoyilga tayandi: kuchli davlat – asosiy islohotchi, qonun ustuvorligi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, bosqichma-bosqich islohotlar, davlatning ijtimoiy himoyadagi roli. 1990-yillar oxiriga kelib davlat mulkini xususilashtirish bosqichi boshlandi. Raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sish omillari kuchaydi. Bu davrda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligi, paxta eksporti va energetika sohalariga qaratildi. 2000-yillarda iqtisodiyotni barqarorlashtirish, milliy valyuta mustahkamlanishi va inflyatsiyaning kamayishi kuzatildi. Tashqi savdo liberallashti, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratildi. Sekin astalik bilan ya'ni bosqichma-bosqich tanlangan yo'lning samarasi o'laroq davlat iqtisodiyoti amalda o'z natijalarini ko'rsatdi. Asosiy iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan davomli bo'ldi. Shuni alohida qayd etish kerakki, O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari – sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi va transport-logistika tizimlaridir. Quyidagi ma'lumotlarda davlatimiz iqtisodiyotining asosiy tayanch nuqtalari bo'lgan: sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi hamda transport-logistika tizimlarining rivojlanish holatlari keltirilib o'tiladi:

- **Sanoat:** Mustaqillik yillarida energetika, tog'-kon sanoati, kimyo va avtomobilsozlik sohalari keskin rivojlandi. Ayniqsa, "GM Uzbekistan", "Navoiy kon-metallurgiya



kombinati”, “O‘zbekneftgaz” kabi yirik korxonalar mamlakat iqtisodiyotining tayanchiga aylandi.

(1-rasm)



Bu grafikda quyidagilar ko‘rsatilgan:

1. GM Uzbekistan – avtomobil ishlab chiqarish yillarga qarab (ming dona)
2. Navoiy KMK – oltin ishlab chiqarish (tonna)
3. O‘zbekneftgaz – tabiiy gaz qazib olish (mlrd m³)

• **Qishloq xo‘jaligi:** So‘nggi yillarda paxtachilikdan sabzavotchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikka o‘tish bo‘yicha keng islohotlar amalga oshirildi. Dehqon va fermer xo‘jaliklariga keng erkinlik berildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida bosqichma-bosqich islohotlar olib borildi. So‘nggi yillarda esa bu tarmoqlarda barqaror o‘shish kuzatilmoqda.

(2-rasm)



Ushbu grafikda 2015–2023 yillar oralig‘ida to‘rtta asosiy yo‘nalish – paxtachilik, sabzavotchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik sohalaridagi ishlab chiqarish hajmlarining dinamikasi tasvirlangan:

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turganidek;

1. Paxtachilik - 2015-yilda paxta yetishtirish hajmi ~3,400 ming tonna bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich ~2,800 ming tonnaga kamaydi.

Bu pasayish O'zbekistonda paxtachilikdan boshqa daromadli ekinlarga o'tish, suv resurslarini tejash va yerlar diversifikatsiyasi siyosatining natijasi.

2. Sabzavotchilik - Sabzavot yetishtirish hajmi 2015-yildagi ~8,500 ming tonnadan 2023-yilda ~10,800 ming tonnaga yetdi. Bu ichki va tashqi talabning ortishi, issiqxona xo'jaliklarining kengayishi bilan bog'liq.

3. Chorvachilik - Go'sht ishlab chiqarish hajmi 2015-yilda ~1,200 ming tonna bo'lsa, 2023-yilda ~1,800 ming tonnaga yetdi. Bu o'sish yangi nasldor chorvachilik fermer xo'jaliklari tashkil etilishi, subsidiya va davlat dasturlari bilan bog'liq.

4. Bog'dorchilik - Meva yetishtirish 2015-yilda 500 ming tonna bo'lsa, 2023-yilga kelib 850 ming tonnaga yetdi. Ko'plab viloyatlarda eksportga yo'naltirilgan bog'lar tashkil etilishi, uzumzor va mevali daraxtlar ekin maydonlarining kengaytirilishi bunga sabab bo'lmoqda.

- **Xizmat ko'rsatish sohasi:** Bank-moliya tizimi, sug'urta, turizm va IT sohalari yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu tarmoqlar hozirda rivojlanayotgani, jahon standartlariga mos kelayotgani quvonarli yutuqlarimizdan.

Bank-moliya tizimi: 2015-yilda 15 trillion so'm atrofida bo'lgan hajm, 2023-yilga kelib 32 trillion so'mdan oshgan. Bank xizmatlari, kreditlash va elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi bu o'sishga sabab bo'lgan.

Sug'urta sohasi: 2015-yildagi 1,2 trillion so'mlik hajm 2023-yilda 3,1 trillion so'mga yetdi. Hayot va mol-mulk sug'urtasiga talab oshgan.

IT sohasi: 2015-yilda 3 trillion so'm bo'lgan sohaga sarmoyalar va IT parklar natijasida 2023-yilda 13 trillion so'mga yetdi. Raqamli xizmatlar, dasturlash va texnologik startaplar asosiy omillar bo'ldi.

Bugungi barpo etilayotgan Yangi O'zbekiston Global iqtisodiy integratsiya masalasiga ham sezilarli yangiliklarni olib kirmoqda. Masalan: O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilishga katta e'tibor bermoqda. Xususan:

- MDH va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari bilan savdo hajmi ortib bormoqda.
- Xitoy bilan "Bir makon – bir yo'l" loyihasi doirasidagi hamkorlik rivojlanmoqda.
- Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan investitsiyaviy va texnologik hamkorlik kengaymoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish yo'lida faol harakat qilmoqda. Keyingi masala bu - zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar ya'ni so'nggi yillarda quyidagi yo'nalishlarda keskin faollik kuzatilmoqda:

- Raqamli iqtisodiyot: Elektron to'lovlar, raqamli bank xizmatlari va startaplar ko'paymoqda.
- Yashil iqtisodiyot: Quyosh va shamol energetikasiga sarmoyalar oshmoqda.
- Inson kapitali: Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga davlat byudjeti hisobidan ajratmalar ko'paymoqda.



Ammo, shunga qaramay, iqtisodiyotda hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud:

- Norasmiy bandlik va ishsizlik darajasi yuqoriligi
- Importga qaramlik, xususan texnika va texnologiyalar sohasida
- Hududlararo iqtisodiy tengsizlik
- Kichik biznes uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi

Xulosa: O'zbekiston iqtisodiyoti bugungi kunda barqaror o'sishni boshidan kechirmoqda. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tizimli islohotlar asosida yangi tarmoqlar shakllandi, xalqaro hamkorlik kengaydi. Raqamli transformatsiya, yashil energiya va innovatsion texnologiyalar kelgusi rivojlanish yo'nalishlari sifatida belgilangan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub burilishlar amalga oshirildi. Ilk yillarda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga moslashtirish, inflyatsiyani jilovlash, strategik tarmoqlarni davlat qo'lida saqlab qolish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali barqaror taraqqiyotga asos solindi.

Alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda raqamli transformatsiya, yashil energetikaga o'tish, eksportni diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash kabi zamonaviy tendensiyalar tobora kuchayib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori — “2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” (2022-yil 28-yanvar).
2. 3. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborotlari — stat.uz (<https://stat.uz/>)
4. Xolboev N., Karimov B. “O'zbekiston iqtisodiyoti”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Xasanov Sh.R., G'afurov U.M. “Makroiqtisodiyot nazariyasi”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
6. Vaxabov A.V., Ibroximov X.I. “Iqtisodiyot nazariyasi”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
7. “GM Uzbekistan”, “Navoiy KMK”, “O'zbekneftgaz” korxonalarining yillik hisobotlari va rasmiy veb-saytlari.
8. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari – mift.uz (<https://mift.uz/>)
9. World Bank. “Uzbekistan Country Economic Update” – The World Bank, 2023.
10. United Nations Development Programme (UNDP) in Uzbekistan – www.undp.org/uzbekistan

